SULTONLIKDAN SO‘FIYLIKKA: RUMIY «MASNAVIY»SIDA IBROHIM ADHAMNING RUHIY SAYOHATI

Islomova Begoyim

Qabul qilindi: 02.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 03.11.2025
Tasdiqlandi: 04.11.2025

Tasavvufda dunyo ne’matlaridan voz kechish va qalbni poklash -- ilohiy ishqqa yetishishning muhim shartlaridan biri. Bu yo‘lga kirgan solik qalbida Allohga bo‘lgan muhabbatdan o‘zgasini sig‘dirolmaydi. Jaloliddin Rumiy "Masnaviyi ma’naviy"da Ibrohim Adhamni podsholikdan kechib, haqirlik jandasini kiygan shayx qiyofasida tasvirlaydi. Rumiy Ibrohim Adhamning taxtdan yuz o‘girishi va u tomonidan ko‘rsatilgan bir qancha karomatlar yordamida qalb pokligi yo‘liga kirgan solik hamda bu ruhiy sayrda fano manziliga yetgan orifni ko‘rsatib beradi.

Ilk islomiy davrning mashhur so‘fiylaridan biri bo‘lgan Ibrohim Adham Balx shahrida, podsho oilasida dunyoga kelgan. U saroyda tarbiya topgan shahzoda bo‘lishiga qaramay ilohiy ish jazbasi qalbiga tushganidan umrining oxirigacha butun hayotini zohidlik, tavba va zikrda o‘tkazgan. Rumiy "Masnaviyi ma’naviy"da Ibrohim Adhamning taxtdan yuz o‘girishini saroy tomida yurgan o‘g‘rilar voqeasi bilan bog‘laydi. Bu tasavvufiy rivoyat Abu Nuaym Isfahoniyning "Hilyat ul-avliyo", Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarlarida ham kelib, chuqur majoziy mazmunga ega. Unga ko‘ra, Ibrohim Adham saroy tomida yurgan o‘g‘rilardan u yerda nimani yo‘qotishganini so‘raganda ular tuyani izlashayotganini aytishadi. Ibrohim Adham bu g‘alati javobdan hayratlanganda o‘g‘rilar "Sen ham dunyo taxtida turib, Allohning muhabbatini istayapsan" deya pisanda qilishadi. Xuddi shu javob Ibrohim Adhamning nafsoniy istaklardan kechib, poklik yo‘liga kirishiga turtki bo‘ladi.

"Masnaviy"da Ibrohim Adhamning daryo bo‘yida ko‘rsatgan karomati keltiriladi. Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida ham Ibrohim Adhamga bag‘ishlangan bobda daryo bilan bog‘liq voqealar qalamga olingan. "Masnaviy" Rumiy ushbu hikoyat g‘oyasida Ibrohim Adhamning ilohiy ishq yo‘lidagi ruhiy sayohatida yana bir daraja tavakkul maqomotiga erishganini ifodalaydi. Unga ko‘ra, Ibrohim Adham jandasiga yamoq tikib o‘tirgan ignasini daryoga otib yuboradi va otib yuborgan ignasini daryodan talab qiladi. Shunda minglab baliqlar og‘zilariga nina ushlab daryodan bosh chiqaradilar. Rumiy ushbu majoziy hikoyatda haqiqiy solikning tavakkul maqomotidagi holati

tasvirlangan. Ilohiy ishq yo‘lida solik tavakkulga erishgach barcha ish va voqeada faqatgina Allohga suyana boshlaydi, ilohiy qudratni yagona tayanch deb biladi.

Ilohiy muhabbat sayridagi eng yuksak manzillar bu solikning fano va baqoga yetishuvidir. Bunda Ibrohim Adham o‘z "men"ini Unda yo‘qotadi, ya’ni u endi "men" deb emas, U deb gapira boshlaydi.

Rumiy "Masnaviyi ma’naviy"da Haq yo‘lidagi ilohiy sayrni "Men yo‘qman, faqat U bor" g‘oyasi bilan yakunlaydi. Rumiy buni fano va baqoga yetishganlar tilidan badiiy ifoda etadi. Shu sababli Ibrohim Adham "Masnaviy"da dunyo sultonligidan voz kechib tasavvuf taxtini afzal ko’rgan va bu yo‘lda fanoga erishgan solik sifatida talqin etiladi.

Adabiyotlar:

1. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. Ikkinchi kitob. -- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 2002.

2. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. To‘rtinchi kitob. -- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 2002.

3. Farididdin Attor. Tazkirat ul-avliyo. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2013.

4. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. -- Toshkent: Movarounnahr nashriyoti, 2009.